

## ADABIY TAHLILNING BADIY-TARBIYAVIY MAVQEYI

**Musurmonkulova Oysulov Yulbekovna,**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, O'zbek adabiyoti va uni o'qitish metodikasi kafedrası o'qituvchisi, mustaqil izlanuvchi*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.18932012>

**Annotatsiya.** Maqolada adabiy tahlil yuzasida ilmiy-metodik qarashlar, maktablarda adabiyot mavzular asosida o'tkazilgan tahlil jarayonlari va noan'anaviy usullar qo'llanilishiga oid amaliy izlanishlar ifodalangan. Hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirish, insonparvarlik g'oyalari o'quvchilarga singdirish yuzasidan ayrim tavsiyalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** arxetip, belgi, ramz, muqobil tasvir, taxmin, ehson, bayt, lateral, insonparvarlik, metod.

**Annotation.** The article presents scientific and methodological views on literary analysis, the processes of analysis conducted in schools based on literature topics, and practical research related to the use of non-traditional methods. Some recommendations are given on developing life skills and instilling humanistic ideas in students.

**Keywords:** archetype, sign, symbol, alternative image, assumption, charity, couplet, lateral, humanism, method.

**Аннотация.** В статье представлены научно-методические взгляды на литературный анализ, процессы анализа, проводимые в школах на основе литературных тем, а также практические исследования, связанные с применением нетрадиционных методов. Приводятся некоторые рекомендации по развитию жизненных навыков и формированию у учащихся гуманистических идей.

**Ключевые слова:** архетип, знак, символ, альтернативный образ, предположение, благотворительность, байт, латеральный, гуманизм, метод.

**Kirish.** Respublikamizda 2030-yilgacha global innovatsiyalar indeksining eng yaxshi 50 mamlakat orasida o'z o'rnini ta'minlash, "Milliy o'quv dasturi"ni rivojlangan davlatlar dasturiga muvofiqlashtirish, inson qadri tamoyili asosida ma'naviy taraqqiyotni yuksaltirish, kompetentlikni takomillashtirishning shakl va metodlarini modernizatsiyalash, yoshlarni professional kasb egasi sifatida tayyorlash strategik vazifalar sifatida belgilandi. "... ma'naviy, iqtisodiy tanazzul, ayniqsa, so'nggi 100 – 130-yillik asorat ajdodlarimizga xos juda ko'p asliy sifatlarimizdan uzoqlashtirdi" [Комилов, 2011: 11]. Bu kabi muammolar oldini olish, kelgusida texnika bilan tillashadigan avlodni o'ylash, iqlim yomonlashuvi haqida bashoratlar, sun'iy intellektning shaxs fikrlashga ta'siri jahon olimlarining diqqat markazida turibdi.

**Adabiyotlar sharhi.** Yoshlarning aql-zakovati va emotsional intellekti zaiflashuvining oldini olishda adabiyot daslarida adabiy tahlilning badiiy-tarbiyaviy mavqeyi uning jamiyat taraqqiyotida o'ziga xos o'rnini belgilashga xizmat qiladi.

Shaxs ma'naviyatining poydevori adabiy tahlil kompetensiyalariga bog'liq ekan, asarlarni o'qitishning (genetik, tipologik, funksional) omillarini takomillashtirish, adabiy

tahlilning mantiqqa tobe bo'lmagan yo'llarini kashf etish va uning asoslarini yaratish o'ziga xos ilmiy-metodik bazani taqozo etadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Suqrot ta'biricha, "Mavjud yoki yo'qning o'lchovi har birimizdir. Bu yerda biri boshqasidan ming marta farq qiladi, chunki bir narsa uchun bor va ko'rinadi, ikkinchisi uchun esa boshqasi... Hech kimning fikri yolg'on emas..." [Daxin, 2018: 5]. Aristotel davridan buyon aqlning samarali faoliyati muayyan dalillarga asoslangan bo'lsa, bugungi kunda lateral fikrlash, tavakkal rejalar asosida ba'zan eng yaxshi natijalarga erishmoqda.

**Natijalar.** Tahlil jarayonida turli janrdagi asarlarni ifodali o'qish o'quvchi ko'z o'ngida gavdalangan qahramon xarakterini tasavvur qilishga imkon yaratadi. Muallif yoki qahramon nutqi o'quvchilarga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Ikkilamchi tagma'nolarni qaysidir o'quvchi ijobiy yo'sinda tushunsa, boshqa bir o'quvchi butunlay boshqacha anglaydi. Muallif fikrini o'quvchilar o'qish jarayonidayoq o'z qarashlari asosida tahlil qilib boradi. Anglashimizcha, o'quvchilarning g'oyalarini amalda qo'llashga yo'naltirish ularning hayotiy ko'nikmalari mustahkam bo'lishini ta'minlaydi.

Adabiy tahlil kompetensiyasida fikrlash turlaridan foydalanish, hayotiy ko'nikmalarning rivojlantirish jarayonlari uchun lateral-kreativ tahlil muhim ahamiyat kasb etadi. Adabiy tahlil jarayoni mazmunida ayrim unsurlar: belgi, ramz, arxetip, xponotop, nuqtayi nazarlar lateral-kreativ yondashuv asosida noodatiy yo'llar, yangi fikrlarni kashf etish mumkin.

Mavzu doirasida ko'rilganda 6-sinfda Ibroyim Yusupovning "Qarddon so'qmoqlar" [Mirzayeva, 2022: 186] she'ri o'rganiladi. She'rdagi "Yo tavba, shu bitta qiyshiq so'qmoqning Dilga yaqinligini qanday aytarsan!" bayti tahlilida tug'ilgan Vatanini ardoqlashi, bugungi o'zgarish tarixi va kelajagi haqida burchini anglatish lozim.

Gul terib, kapalak quvgan sho'x vaqtim,

Anov bedazorda yurgan toy dersan.

Yo tavba, shu bitta qiyshiq so'qmoqning

Dilga yaqinligin qanday aytarsan!

She'rida harakat ("Kapalak quvgan", "Sho'x vaqtim"), portret ("Anov bedazor"), arxetip ("Sho'x"), pezaj ("Qiyshiq so'qmoq") poetik nutq ("Qanday aytarsan") tasvirlar ifodalangan. Bunda "Sho'xlik" arxetipi bolaning ongli tajribalari, his-tuyg'ulari asosida Vatan xususiyatlarini ochishga ta'sir etgan. "Arxetiplar – bu rasmiy xulq-atvor belgilari, tug'ma sezgi yoki ramziy ifodalar..." [Davidov, 2011: 25]. Adabiy tahlil jarayonida o'quvchilar bu jihatlarni anglashda o'qituvchi yaqin ko'makchi hisoblanadi. O'quvchining ko'z oldiga avval ko'rgan tanish tasvir birma-bir namoyon bo'ladi: kapalar, toy; gul, bedazor, so'qmoq kabilar jonlanadi.

Lateral fikrlashning 4 ta muhim jihati: a) taxminni tekshirish (har qanday fikrni tekshiradi); b) To'g'ri savol berish; d) nostandart fikrlash; e) ijodkorlikka e'tibor qaratiladi. Bunda asar (voqea-hodisa) elementlarining o'zgarimas aloqalari va ular

orasidagi ichki munosabatlar o‘quvchining nostandart fikrlaridagi mantiq hisoblanadi. Ijodiy fikrlashni rivojlantirish vositalari mavzu hamda dars bosqichi doirasida tanlanadi. “VARK” metodi darsning mustahkamlash bosqichida vizual (ko‘rish), aural (eshitish), read (o‘qish/yozish) va kinestetik (harakat) diagramma o‘quvchilarning fikrlash layoqatini aniqlashga yordam beradi. “VARK” metodida 4 guruhda ish olib boriladi. (1-jadvalga qarang).

**1-jadval**


**VARK metodida guruhni shakllantirish muhim**

Mazmun	V (ko‘rib o‘rganuvchilar)	A (eshitib o‘rganuvchilar)	R (o‘qib-yozib o‘rganuvchilar)	K (kinestetik o‘rganuvchilar)
<b>Vositalar</b>	diagramma, jadval, xaritalar	audiokitob	manba, maqolalar	rol o‘ynash, amaliy mashq
<b>Guruh ishi</b>	“Shukronalik sifatleri” jadvalini ishlab chiqish	“Jamiyat rivojida yoshlar o‘rni” taqdimot tayyorlash	“Mening yurtim” mavzusida matn yozish	“Men yo‘lim...” mavzusida ko‘rgazmali chiqish

Yashagan mahallasi (yashil belgi) uyi (issiq belgi), eshitgan, ko‘rgan va o‘zi ishtirok etgan voqealar shukronalik hissini uyg‘otadi. Lateral yondashuvda og‘zaki vazifalar og‘zaki bo‘lmagan vazifalarga qaraganda biroz qiyinchilik sezilgan. Ayonlashadiki, nostandart fikr yaratish uchun tajriba va ichki xotiraga bog‘lanish muayyan vaqt talab etadi (2-jadvalga (guruh ishi namuna) qarang).

**2-jadval**

**“Qadrdon so‘qmoqlar” she’ridagi shukronalik sifatleri tahlili**



kasallik, tushkunlikda nima qilishni biladi

sabrli

She'rdagi shukronalik hissi insonlarda shuncha sifatni o'zlashtiradigan quvvatga ega. Shukronalik hayotdan mamnunlikni, mamnunlik mustahkam iymonni ifoda etadi. Bu tarbiyaning qanchalik singdirilgani jamoat joylarida bilinadi. Biror bir kasallikni davolashdan oldin organizmida, avvalo, unga qarshi immunitet hosil qilinganidek, shukronalik ma'naviy immuniteti demakdir. Sog'lom fikrlash shukronalikdan ildiz otadi. Tashqaridan fikrlash birikuv-bog'lanishlar matn yaxlitligini ta'minlaydi, stereotiplardan voz kechishga tayyorligini belgilaydi.

G.V. Leybnitsning fikricha "haqiqat haqiqatlari" shundaki, empirik tarzda olingan bilimlar (masalan, "Bedazor", "Qiyshiq so'qmoq") o'quvchilarda fikrlarining to'laqonli bo'lishiga asos yaratishi bilan birga ular ongidagi xotiralar haqida o'ylashga, Vatanini qadrlashga undaydi, turli xil fikrlash uslublarini o'rganish kuchli g'oyalarni yaratishga yordam beradi.

6-sinf "Adabiyot" darslarida Azim Suyun she'rlari tahlili kuzatilganda o'quvchilar lirik janrlarda epik asarlarga nisbatan biroz qiynalishi kuzatildi.

Yomg'ir yog'ib o'tdi, Osmon yuzidan  
Nafarmon bulutlar yig'di etagin.  
Oftob ham ko'rindi ko'hna izidan  
Va boshlab yubordi dilbar ertagin.

Mazkur she'r matni bilan tanishgach, o'quvchilar odatdagiday umumiy fikrlarini bayon etishgan. Shu o'rinda lateral yondashuvning uch bosqichiga (uzilish – ulanish – yangidan yaratish) mos shaklda yangi g'oyalar va tushunchalarni yaratish tushuntirilganda, o'quvchilar obrazli tafakkur orqali tabiat hodisalarini, ularga mos kelmagan tasavvurlarini birlashtirgan, bulutlar chekinishini o'z dunyoqarashi bilan baholashga kirishgan. "Qalb yomg'iri", "tushkun kayfiyat", "kayfiyat ko'tarilish", "yashillik" ramzlari markazda bo'lgan.

O'qituvchi, adabiy tahlilda quyidagi omillarni e'tiborda tutishi lozim:

1. Yomg'ir tasvirida qizg'ish rang tanlanganining sababini aniqlash.
2. Ijodkor tanlagan so'zlardan boshqa mazmun chiqarish yo'llarini ko'rsatish, soyalar ortda qolishi uchun sabrning sinovlari borligini anglatish muhimdir.

Matnning konstruksiyasiga e'tibor berilsa muallif yomg'ir yog'ishida nega osmon yuzini tanlash masalasi turadi. Bu kabi ritorika – o'lchovlardan foydalanish o'quvchilarni fikrlashga olib keladi. "San'at asari ma'lum bir voqelikni ifodalaydi va shuning uchun qismlarga bo'linishi mumkin" [Lotman, 1972: 11]. O'quvchilar "osmon yuzi", "nafarmon bulut", "namli qoya" so'zlar mazmunini o'rganadi. Tahlil qilinayotgan she'rda shakl va mazmunning o'zaro uzviyligini ko'rish uchun formalistik nazariyalar ahamiyatlidir.

Go'yoki, shoir yomg'ir bilan gaplashadi va bu orqali u yomg'ir sehrini barchaga yetkazishga harakat qiladi. Yomg'irdan, soyadan hamroh ramzi sifatida o'xshatish (junbush), personifikatsiya (chekinib borar soyalar), timsol (ko'hna izi), litota (dilbar ertagin) kabi obrazli tildan foydalanadi.

O'quvchilar muallifga ergashib tahlil qilishda yaxlitlikni tushunishlari zarur. O'qituvchi tajribasi o'quvchilarning adabiy, ramziy ifodasida seziladi. She'rdagi har bir qator ma'nolarning semantik yaxlitligini ifodalasa, qofiyadagi so'zlar qiyoslash asosida strukturaviy juftlik munosabatini tashkil qiladi.

Jarayondagi asosiy ko'rsatmalar:

1. Muammolarga e'tibor qaratishdan voz kechish.
2. G'oyani buzish, qayta belgilash muhimligini o'rganish.
3. O'z g'oyalarini, obrazli tafakkur konsepsiyalarni ilgari surish.

Ma'lumki, obrazli tafakkurda voqealar munosabati baholanishida o'zining kutilmaganligi, tabiiyligi, bo'yoqdorligi, emotsiyaga boyligi bilan ajralib turadi. Qizg'ish rangli shu'lalarning tovlanishi, odimlayotgan inson organizmidagi kechayotgan mayinlikka qiyoslashlar nostandart fikrlash sanaladi.

O'quvchi noodatiy g'oya paydo bo'lganda ham ko'pincha o'zlariga ishonchsizligi sezilib turadi. Shunday holatda o'qituvchi ko'maklashishi, qo'llab-quvvatlashi kerak. O'quvchilar she'rdagi yomg'irning yog'ish holatini osmon yuzi deb tasavvur qilishda nafaqat, ko'rinib turgan osmonning yuzini, balki uning ortidagi xayolga kelmayotgan tushunchalarni topadi – obrazli tafakkuri boyib boradi. Nafarmon bulutlar yig'ilishi etakka qiyoslanishida ham muqobil variant axtaradilar. "Nafarmon" so'zi rangga monand qo'llanganligi, ya'ni qizg'ish binafsha rangli bulutlar ortidan quyoshning chiqishi badiiy tasvirni tasavvur qilishga imkon beradi.

Bu o'quvchini asar mohiyat-mazmunini e'tiborga olishga o'rgatadi. "Va boshlab yubordi dilbar ertagin" misrasi tahlilda o'quvchilar yomg'irning shig'alab yog'ib o'tishi, go'yo tashvishlarni yuvib, go'zallik yaratish, kunning osudalik egallashi, shirin hayot tashvishlari sifatida izohlashadi.

Lateral-kreativ yondashuv asosida adabiy tahlil kompetensiyasini shakllantirishda kuzatilganlar: qahramon nuqtayi nazari bilan o'quvchining ko'rgan va bilganlari asosida hayotiy-uzviy belgilar e'tiborni tortish; matn tahlilida muallif asoslari, tavsiflari va portretlarida g'oyaviy-emotsional nuqtayi nazar yoki qahramon portreti tafakkurda zaruriy tushuncha va vositalarga aylanishi; muqobilini qidirishda boshqa so'zga o'tib ketish, tezaurusini (ma'nodan yiroqdagi sinonim so'zlar) kengaytirish, g'oyadan yiroqlashish; muallif va qahramon qarashlari o'quvchi (faraz qiluvchi) ongining fenomenologik tahlilida muayyan (badiiy rishta) umumiylik yo'qolishi; g'oyani asoslash mohiyati, o'quvchi motivi, maqsadi, his-tuyg'ulari, munosabat (taxmin fikri) tafakkurda yangi sahifani ochishi kabi.

7-sinfda jahon adabiyotidan o'rganiladigan Ernest Seton-Tompsonning "Lobo" asarida ham butun hayotini o'z galasiga boshchilik qilgan, Kurrumponi zir titratgan Loboning ayanchli taqdiri hikoya qilinadi. Lobo umri davomida butun galasini har qanday xavfdan sezgirlik bilan omon saqlab kelardi. Jons Xopkins universiteti doktor Jeyms Xarris buni "ijtimoiy birlikni saqlashning evolyutsion mexanizmi" deb ta'riflaydi [Mariska, 2011: 25]. Hayvonot olamida nafaqat, bo'rilar galasi, balki barcha jonivorlar ham o'zaro uyg'unlikda hayot kechirishadi. Asarda Blankaning qopqonga tushish, Lobo o'z jufti uchun jonidan kechishi voqealari, qiyin vaziyatda birorta yordam kelmasligi tasvirlari o'quvchilarga turlicha tasavvur beradi.

"Har bir jonli mavjudot – bebaho xazina, uni yo'q qilishga, bolalarimizni bu xazinadan bebahra qoldirishga haqqimiz yo'q", – degan edi Ernest Seton-Tompson. Yozuvchining bu fikrini qanday tushundingiz? "Lobo" hikoyasi bu fikrga qay darajada mos? savolida o'quvchilar mustaqil fikrlari bilan ishtirok etishadi. Muammo shundaki, tabiatda jonsarak hayvonlarni qirib foyda va insonlar moliga qiron keltirib zarar keltirishi muammosini hal etishlari kerak. Darslikda mavzu bo'yicha o'quvchilarga loyiha ustida ishlash topshirig'i berilgan.

Loyihaga asoslangan o'qitish (PBL) "Loyiha" metodi sifatida real hayot sharoitida o'quv topshiriqlarini bajarishni talab etadi. Loyiha ishi darsda bajarishga mo'ljallanmaydi, darsda uning elementlaridan foydalanish mumkin. Loyiha o'quvchilarda mavjud bilimlardan yangi g'oyalar paydo bo'lishi, ya'ni ijodkorlik nevrologiyasining ishlaydigan nazariy asosiga oid mavjud topilmalar sintezini talab qiladi. Lateral nevrologiyaga o'tish o'rinlari ham ijodiy fikrlashni bilishning yaxshi o'rnatilgan jihatlari bilan (semantik, xotira, e'tibor, aql, o'y, taxmin, faraz) o'zaro bir tizimda foydalanadi.

Ijodiy loyihalar: *Tabiat; Hayvonot; Insoniyat*. O'quvchilar bir hafta davomida kuzatuvlar olib borishadi va shu asosda loyiha ishini tayyorlashadi. Ernest Seton-Tompsonning "Lobo" asariga nimalarni qo'shish mumkin aniqlashdan iborat. Loyihada tabiat guruhi uchun "So'zlaydigan sukut", hayvonot guruhi uchun "Inson ustidan hukm", insoniyat guruhi uchun "O'ziga guvoh bo'lish" mavzusi belgilanadi. Loyiha ishi ikki bosqichda o'tkaziladi. Loyiha ishining 1- bosqichda mavzu asosida ijodiy ish ixtiyoriy shaklda (fotoesse, argumentli esse, taqdimot, laboratoriya ishi, fotolar jamlanmasi, video rolik) tayyorlanadi. 2-bosqichda guruh umumiy himoyadan so'ng asarga kiritishi mumkin o'rinlari aniqlanib qarorlashtiriladi.

O'quvchilar kuzatish, material to'plash hamkorlikni, loyiha ishining samarasi ulardagi tafakkurini, ishni bajarishda o'zini o'zi baholashga erishishni nazarda tutadi. Loyihada ijodkorlik muhim sanalmaydi, kuzatuv, tahliliy qarashlar, dalillar e'tiborga olinadi. "Qobiliyatlari yuqori bo'lgan odam ijodiy bo'lmasligi yoki aksincha bo'lishi mumkin. Amerikalik ijod tadqiqotchisi P.Torrens uni boshqalarga nisbatan sezgirlik ko'rsatish jarayoni sifatida belgilaydi [Евгений, 2009: 158].

Instinkt bilan yashaydigan hayvonlarning vijdon bilan yashaydigan inson uchun hukm chiqarishi o'quvchilarga ko'chadagi chumoli, qush, mushuk, kuchuklarga befarq bo'lmasligi yuzasidan o'zlariga "oyna tutgan" hisni beradi. "Asarda kim shafqatsizroq – bo'ri yoki inson?" savolida bahslashadi. Do'stlarining baklashka, klyonkalarni otib ketishi dastidan nafas yetishmayotgan tabiatning nolasini eshitishadi, turli ma'lumotlarda o'zini ko'radi. Loyiha ishida o'quvchilar hamkorligining afzalligi – shaxsiy farqlar, ehtiyojlar, qiziqishlar va turlicha salohiyati o'rganish tajribalari taqdim etadi. Loyiha ishida o'quvchilar qiyin muammolarga duch keladi, lekin ulardagi tajriba almashinuvi, o'rganish muhiti ularni turli yechimlar orqali o'ylashga va o'rganishni ta'minlaydi. Loyiha yangi tajriba orttirish, kuzatish, qidirish, ishonchli ma'lumotlarni topishga yordam beradigan estetik o'rganishdir. Loyiha ishi nafaqat adabiy-ma'naviy, balki jismoniy rivojlanishni mustahkamlash uslubidir. "O'ziga guvoh bo'lish" guruhiga insonlarning e'tiborsiz harakati, sabrsizlik, o'zini o'ylash, muomala, xatolar kabi turli fikrni loyihada jamlash nimadir beradi. Loyihaning maqsadi uch guruh ham o'ziga qaratilgan "hukm"ni kechiktirish samarasiz vaqtini (mushuk, qushlarni asrash, itlarga ozor bermaslikni anglatish kabi), ilmining amallariga e'tiborsizligini tushuntirishdir.

9-sinfda "Alpomish" dostonida Hakimbekning qahramonlik sifati, Barchinoyning g'ururi, or-nomusi, vatanparvarligi alohida tushuntirib o'tiladi. Boybo'ribiyning Alpomishdan "Kishi nimadan baxil bo'ladi, nimadan saxiy bo'ladi" savoliga o'g'li shunday javob beradi: "Vaqti-bevaqt birovnikiga mehmon kelsa, otini ushlab, joy bor bo'lsa, ko'nglini xushlab jo'natsa, bul ham saxiy; agar joy bor turib, joy yo'q, deb qo'ndirmay jo'natsa, bul odam baxil. Vaqti - bevaqt bir kishi mozorotning qabatidan o'tsa, chap oyog'ini uzangidan chiqarib, mozordagi odamlarning haqqiga duo o'qib o'tsa, bul ham saxiylik; agar har kim mozordan o'tganda, chap oyog'ini uzangidan chiqarmay, mozorotning haqqiga duo qilmay o'tsa, bul ham baxil..." [Nurmuhammadov, 2025: 10]. Yoshlarga "Kim saxiy, kim baxil" mazmunidagi savollarga yuzaki muhokamalar bo'lsa, hayotiga oid "Xato qildim" usulida buning aksi kuzatiladi (3-jadvalga qarang).

3- jadval

**"Xato qildim" usulining qo'llanilish tartibi**

T/r	Mazmuni	Ha	Xato qildim
1	Mehmon kuzatganingizda ko'nglingiz to'lganmi?		+
2	Sizga kimdir aqli (yaxshi, saxiy) ekansan deganmi?		+
3	Mozorning yonidan o'tganda kimningdir haqqiga duo qilganmisiz?		+
4	Uyingizda notanish kishi mehmon bo'lganmi?		+
5	O'zingizga zarur narsani hech birovga berganmisiz?		+
6	Hech kim bilmaydigan yaxshilik qilganmisiz?		+
7	Mehmon bo'lganingizda sizni xushlamaganini sezganmisiz?	+	

O'quvchilarning deyarli "xato qildim" grafasini tanlashgan. Buni "yaxshi natija" deb baholash mumkin. Yosh novdada namlik kuzatilganidek o'quvchilar fikrlarida beg'uborlik, ishonuvchanlik, to'g'rilik xususiyatlar mujassam. Adabiy ta'lim jarayonida

insoniylik “markaz” hisoblanadi. Ya’ni, o‘quv fani qachonki, maqsadga eltuvchi poydevorni mustahkam tersa insoniylikka yetaklaydi, yosh avlodni salbiy illatlardan asrab, axloqan pok, haqiqiy inson bo‘lib yetishishlariga ko‘mak bo‘la oladi. Bugun jamiyatda deduktiv mulohaza yuritish, yangi yechimlar topish, o‘z nuqtayi nazaridan huzurlanish, umumiy ritorik maqsadlar uyg‘unligini ta’minlashni taqozo etadi. Binobarin, A.M.Novinkov “mavhumlashtirish darajasiga ega bo‘lgan barcha nazariy konstruksiyalarni metodologiyaga kiritish tendensiyasi rivojlanganligini” alohida ta’kidlagan edi.

**Xulosa.** Nostandart fikrlar jamiyatdagi trend va muammolarga bog‘liq muhokamalar sabab-natija munosabatlari qaysidir ma’noda aniqlashga erishgan. Fikrlashni ixtiyoriy ravishda qanchalik takomillashtirish mumkinligini his etishgan. Ayniqsa, bugungi fikrlar muvozanatida soxta xabarlariga ergashmaslik ta’siri kuzatilgan. Bu bevosita trendlar qanday o‘zgarishini aniq bashorat qilish uchun yaratilgan nostandart g‘oyalar o‘quvchilarga kelajakda potensial ustunliklarni o‘ylash imkonini beradi.

Xulosa qilinganda, bugungi yoshlarning tanqidiy fikrlash, kommunikativlik, kreativ, ijodiy yaratuvchanlik kompetensiyalarini rivojlantirish, dars jarayonlarining amaliy jihatlariga e’tibor qaratish, raqobatbardoshlikni oshirish bugungi kunda nafaqat zarurat, balki ehtiyojga aylandi. Binobarin, bugungi akademik infilatsiya jarayonida, mafkuraviy maydonlarga rishtasiz tutashgan minbardagi o‘qituvchilar hatto tasavvurimizdan ortiq ma’noda javobgardirlar.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Akbarov S.N. Shaxs xarakterining tashqi belgilari. – Toshkent: Fan va ta’lim, 2015.
2. Davidov A. I. Arxetip: diapazon znacheniy v prikladnom psixoanalize kultury. Simvolicheskoe i arxetipicheskoe v kulture i sotsialnyx otnosheniyax: materialy mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferensii. – Penza – Praga: Sotsiosfera, 2011.
3. Daxin A.N. Metod Sokrata. – Novosibirsk, 2018. //https://prepod.nspu.ru/mod/page/view.php?id=34928
4. Евгений П.И. Психология творчества, креативности, одаренности. – Питер: СПб, 2009.
5. Комилов Н. Тафаккур карвонлари: Шарку Фарбнинг цивилизациявий алоқалари. – Тошкент: Шарк, 2011.
6. Лотман Ю.М. Анализ поэтика текста. Пособие для студентов. – Ленинград: Просвещение, 1972.
7. Mariska E. Kret etc. My Fear Is Not, and Never Will Be, Your Fear: On Emotions and Feelings in Animals. – USA: Affective Science. – 182–189 pg. // <https://d-nb.info/1260858502/34>
8. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022.
9. Новиков А.М., Новиков Д.А. Методология. – М.: СИНТЕГ, 2007.
10. Nurmuhhammadov J., Yusupova.D., Olimjanov O. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2025.
11. Yo‘ldoshev Q. va boshq. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. / 1-qism. – Toshkent: Novda Edutainment, 2024.
12. Чумакова А.Н. Философия. Учебник. – М.: ИНФРА-М, 2018.